



FALSAFANING INSON TAFAKKURI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Nuraddinova Oydin Rasul qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Xudayqulova Feruza Xolovna
oydinnuraddinovarasulqizi@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada falsafa fanining inson hayotidagi o'rni, uning tafakkuri shakllanishi, dunyoqarashi kengayishidagi ahamiyati yoritib beriladi.. Qadimgi (antik) davrdan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrda falsafiy tafakkur, mushohadalar inson tafakkurining boyishiga qanchalik ijobiy ta'sir qilgani, buning natijasida esa jamiyat taraqqiyotida ham asrlar davomida olamshumul yuksalishlar bo'lganligi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *falsafa, falsafiy tafakkur, mustaqillik falsafasi, o'zbek falsafasi, zamonaviy jamiyat.*

Аннотация: *В данной статье освещается роль философии в жизни человека, её важность в формировании мышления и расширении мировоззрения. Рассматривается, как философская мысль и наблюдения положительно влияли на обогащение человеческой мысли с древних времён до наших дней, и как следствие, привели к значительным успехам в развитии общества на протяжении веков.*

Ключевые слова: *философия, философская мысль, философия независимости, узбекская философия, современное общество*

Abstract: *This article highlights the role of philosophy in human life, its importance in the formation of thought, and the expansion of worldview. It discusses how philosophical thought and observations have positively influenced the enrichment of human thought from ancient times to the present day, and as a result,*



there have been significant advances in the development of society over the centuries.

Keywords: philosophy, philosophical thought, philosophy of independence, Uzbek philosophy, modern society.

“Falsafa - barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam – tibbiyot yoki ta’lim, san’at yoki madaniyat sohasi vakili bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar - hayotning, o‘z kasbining ma’no-mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni tahlil qilish uchun har bir voqea va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur xulosalar chiqara olish kerak. Shu bois tarixchi b’lish uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo’lish darkor.” - degan edi I.A.Karimov.

Zamonaviy taraqqiyot, globallashtirish inson va olam muammosini o’ta dolzarb bo’lishi, tabiat, jamiyat va shaxs munosabatlarini tartibga solishni o’ta murakkablashuvi bilan falsafiy tafakkurni yashash zaruriyatiga aylantiradi. Chunki, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi yangilanish falsafasi sifatida fanni talab etadi. Shu bois falsafani bilish demokratik islohotlarni anglash orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirish har bir fuqaroga munosib turmush sharoitini ta’minlashga imkon beradi. Yoshlarning tabiat, jamiyat fanlaridagi yangiliklar donolik qonunlari asosida tahlil qilishga, yangicha fikrlashga o’rgatish, ularni mustaqillik qadriga yetadigan uni himoya qiladigan va mustahkamlash uchun kurashadigan, zamon bilan hamnafas bo‘ladigan shaxs qilib tarbiyalash, kelajagi buyuk bo‘lgan davlatimizning asosiy prinsiplari: demokratiya, inson xukuklari, erkinlik, davlat va xalk munosabatida odamlarning roziligi tushunchalarini yoshlar ongiga singdirish mustaqillik falsafasining asosiy vazifasidir.

Falsafa – insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ilm va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Inson bor ekan, olam va odam nima, ular qanday paydo bo‘lgan, voqelik qanday qonuniyatlar asosida



yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, umrning mazmuni nimadan iborat, avlodlar ortidan avlodlar kelib ketaverishida qanday ma'no bor kabi masalalar barchani o'ylantiradi. Falsafa ana shunday masalalar bilan shug'ullanadi. U nihoyatda qadimiy fan. Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi.

Falsafaning asosiy vazifasi inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bunday dunyoqarash biron-bir g'oyani zo'rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas, balki ishonitirish, xilma-xil fikrlarni o'rtaga tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha, tamoyillarni aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Falsafa olam va uning yashashi, rivojlanishi, o'zgarishi, taraqqiyoti, hayot va inson umrining mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan qadimiy fandır.

Borliqni inson o'rganib borar ekan, uning o'zi bilmagan yangi va yangi qirralarini ochib boradi va kashf qiladi. Fandagi yangi tomonlar insonni yangi falsafiy g'oyalarni nazariy jihatdan oldinga surishga olib boradi. Tabiatdagi, jamiyatdagi, inson va uning tafakkuridagi o'rganilayotgan va kashf qilinayotgan yangi tomonlar falsafiy mushohadada yangi yo'nalish va oqimlarni vujudga keltiradi. Shu tariqa inson, jamiyat, tabiat har doim harakatda, o'zgarishda, rivojlanishda o'z yo'lidan boraveradi. Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin milliy falsafani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Bugun ulug' ajdodlarimiz tamal toshini qo'ygan o'zbek milliy falsafasini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari mavjud. Falsafiy fikrlar, g'oyalar fanning rivoji oldida turgan masalalarni hal qilishda o'ziga yarasha katta kuch hisoblanadi. Asrlar davomida shakllanib kelayotgan falsafiy bilimlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Prezident I.Karimov asarlarida o'zbek falsafasining taraqqiyot qonuniyatlari ochib berilayotganini alohida ta'kidlash



lozim. Prezident falsafa oldidagi bugungi muammolarning mohiyati, ularni hal qilish yo‘llariga alohida e’tibor bermoqda. Milliy g‘oya, istiqlol mafkurasi haqida so‘z yuritib I.Karimov shunday deydi: «Milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma’naviy boyligiga dunyoqarashining negiziga aylanishga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir». O‘zbek falsafasining rivojlanishida bugungi kunda quyidagi jihatlar alohida e’tibor berish lozim: xalqimizning:

- o‘z milliy an’analariga sodiqligi;
- mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonchi;
- muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e’tiqodi;
- mehnatsevarligi, intellektual salohiyati va boshqalar.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz lozim: falsafa – bu tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiy qonunlarini o‘rganadigan fan. Mustaqillik qo‘lga kiritilgach yurtimizda falsafani yanada rivojlantirish zarurati paydo bo‘ldi.

Mustaqillik falsafasi millatimiz vakili bo‘lgan, mustaqil fikrlay oladigan, barkamol insonni tarbiyalashga yo‘naltirilishi lozim. Shuning uchun falsafa fani ko‘pgina dolzarb muammolarni, xususan yurtimizda istiqlolni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidagi ma’naviyatning ajralmas qismi bo‘lib, uning tamoyillarini aks ettirmog‘i lozim. haqiqatligini tekshiruvchi mezonlarni ham tadqiq etadi.

Falsafa inson oldiga, avvalo, o‘zini anglash va so‘ngra borliqni o‘rganish masalasini ham qo‘yadi. Dunyoni bilish asosida inson o‘zi o‘zgarib, dunyoni oqilona anglab, so‘ngra amaliy faoliyatida falsafiy umumlashmalarga tayanadi. Jamiyat hayotining hozirgi zamon sharoitida falsafaning aksiologik funksiyasi ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu funksiyaning mohiyati shundaki, falsafa inson hayotining mohiyatini, uni yashashining asosiy mazmunini, insonning turmushdagi qadr-qimmatini, jamiyatda tutgan o‘rni, uni axloqiy, gumanistik prinsiplar va



g‘oyalarni baholash asosida tushuntiradi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi kunda insoniyat boshiga xavf solayotgan jahon termoyadro urushi, qurollanish poygasining yanada avj olishi, ekologiyaning buzilishi, energiya zaxiralarini tugab borishi, jamiyatda yuz berayotgan moliyaviy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy tangliklar sharoitida turli maqsadlar va faoliyatlar natijalarining gumanistik g‘oyalar bilan qo‘shilib borishi, insoniyatning Yer yuzida yashab qolishi muammolari umuminsoniy qadriyatlarni birinchi o‘ringa chiqarmoqda. Inson o‘z qadr-qimmatidan kelib chiqqan holda o‘zini ehtiyotlashga, tabiatni qo‘riqlashga intilib boraveradi. Insoniyat o‘z tarixiy rivojlanishi davrida manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p qadriyatlarni yaratgan.

Falsafa tafakkur rivojining buyuk yutug‘i va insoniyat ma’naviy yuksalishining muhim omilidir.

Zamonaviy jamiyatda falsafiy bilimlarning o‘rni yanada ortib bormoqda, chunki u ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy hayotning turli jabhalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, har bir inson falsafiy bilimlarga ega bo‘lishga intilishi va o‘z hayotida qo‘llab ko‘rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Falsafa: Darslik / Yusubov D.A. Saitxodjayev X.B. Mavlyanov A.A. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 267 b.
2. O.Haydarov, J.Ostonov, O.Sultonova. Falsafa. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand. SamVMI. 2022. 250 bet
3. G.T.Mahmudova, Sh.T.Tursunkulova. Inson falsafasi. Darslik. (falsafa yo‘nalishidagi magistrlar uchun). – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 176 b.
4. “TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VAINNOVATSION G‘OYALAR. FALSAFANING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI” mavzusidagi maqola. Muallif: Toyirova Rayhona. Shahrisabz davlat pedogogika institute Tillar fakulteti Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi 1-kurs talabasi



5. Maxmudova Sh.M Standart til birliklarini o'rgatishda talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish. 2025/1/30. Jurnal tamaddun nuri jurnali. Tom-1.N-64. B.94-97.
6. Maxmudova Sh.M Distance learning for part-time educators: technologies and methods, advantages and disadvantages (<https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27971>). Modern Science and Research. T-3 №-1 P. 1-3.
7. Maxmudova Sh.M. Rules for constructing a standard sentences in the English language and its formation. 2024/1/24. Журнал. Лучшие интеллектуальные исследование. Том-2.Страницы .60-63.
8. Maxmudova Sh.M. Nofilolog yo`nalishidagi talabalarning ingliz tilida tinglab tushunish ko`nikmasini rivojlantirishda zamonaviy metodlarning samaradorligi. 2023/1. Журнал. Образование наука и инновационные идеи в мире.Том-1. Страницы.77-81.
9. Худайкулова Ф.Х Инклюзивное образование и толерантность в образовательной среде: контроль знаний. Конференция-2025.10.22.Стр.258-262
10. Feruza Xudayqulova. Проблемы и применение технологии преподавания.Журнал. Modern Science and Research. Том-3. Номер-1. Стр.1-5. 2024/1/12.
11. Худайкулова Ф.Х. Новые образовательные технологии на уроках русского языка и литературы как средство повышения эффективности обучения: 101-105.ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал.2022
12. Худайкулова Ф.Х. Использование цифровых технологий на занятия русского языка как средство повышения учебной мотивации и качества обучения. Журнал «Лучшие интеллектуальные исследования». 2026/1/9. Том-60. №-2.Стр. 46-49.



13.Худайкулова Ф.Х. Роль самостоятельного обучения в развитии языковой компетенции студентов высшей школы. 2026/2/23. Журнал «Образование наука и инновационные идеи в мире». Том- 88. Номер-1.Страницы 23-28.

14.Худайкулова Ф.Х. Использование цифровых технологий на занятиях русского языка как средство повышения учебной мотивации и качества обучения. 2026/1/9. Журнал. Лучшие интеллектуальные исследования. Том-60. Номер-2.Стр.46-49.

15.Худайкулова Ф.Х. Роль самостоятельного обучения в развитии языковой компетенции студентов высшей школы. 2026/2/23. Журнал «Образование наука и инновационные идеи в мире». Том- 88. Номер-1.Страницы 23-28.

16.Худайкулова Ф.Х. Новые образовательные технологии на уроках русского языка и литературы как средство повышения эффективности обучения: 101-105.ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал.2022

17.Худайкулова Ф.Х. Использование цифровых технологий на занятиях русского языка как средство повышения учебной мотивации и качества обучения. Журнал «Лучшие интеллектуальные исследования». 2026/1/9. Том-60. №-2.Стр. 46-49.

18. Худайкулова Ф.Х. Отличия и проблемы технологии преподавания. Журнал. Лучшие Интеллектуальные Исследования. Международный научный электронный журнал Том-1.Страницы 10-19